



UDK: 101.(314)

Azim TURGUNOV,
Alfraganus universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti dekani, PhD
E-mail: azimturgunov52@gmail.com

S.f.d., prof. A.Muminov taqrizi asosida

AXBOROT MADANIYATINING TARIXIY RIVOJI VA HOZIRGI DAVRDAGI DOLZARBLIGI

Annotatsiya

Ushbu maqolada axborot madaniyatining tarixiy shakllanish jarayonlari, uning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni hamda XXI asrda mazkur tushunchaning dolzarbligi ilmiy nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi sharoitida axborot madaniyati nafaqat individual kompetensiya, balki jamiyatning barqaror rivojlanishini ta'minlovchi strategik omil sifatida qaraladi.

Kalit so'zlar: Axborot madaniyati, madaniyat, ommaviy madaniyat, axborot madaniyatini shakllantirishi tarixi, yoshlar, media-tahlil, axborot oqimi.

HISTORICAL DEVELOPMENT OF INFORMATION CULTURE AND ITS RELEVANCE IN THE PRESENT PERIOD

Annotation

This article analyzes from a scientific point of view the processes of historical formation of information culture, its role in the development of society, and the relevance of this concept in the 21st century. In the conditions of the rapid development of information technologies, information culture is considered not only as an individual competence, but also as a strategic factor ensuring the sustainable development of society.

Key words: Information culture, culture, mass culture, history of the formation of information culture, youth, media analysis, information flow.

ИСТОРИЧЕСКОЕ РАЗВИТИЕ ИНФОРМАЦИОННОЙ КУЛЬТУРЫ И ЕЁ АКТУАЛЬНОСТЬ В СОВРЕМЕННЫЙ ПЕРИОД

Аннотация

В статье с научной точки зрения анализируются процессы исторического формирования информационной культуры, её роль в развитии общества и актуальность данного понятия в XXI веке. В условиях стремительного развития информационных технологий информационная культура рассматривается не только как индивидуальная компетентность, но и как стратегический фактор, обеспечивающий устойчивое развитие общества.

Ключевые слова: Информационная культура, культура, массовая культура, история становления информационной культуры, молодёжь, медиаанализ, информационный поток.

Kirish. Globallashtirish jarayonlari chuqurlashib borayotgan hozirgi davrda axborot insoniyat taraqqiyotining asosiy resurslaridan biriga aylandi. Axborot almashinuvi ko'lamining kengayishi, axborot kommunikatsiya texnologiyalarining (AKT) rivoji va raqamli platformalarning hayotning barcha jabhalariga kirib borishi axborot madaniyati masalasi o'ta dolzarb muammoga aylantirmoqda. Shunday sharoitda axborot madaniyatining tarixiy ildizlarini o'rganish, uning rivojlanish bosqichlarini tahlil qilish va zamonaviy ahamiyatini aniqlash ilmiy jihatdan muhim vazifadir.

Jahonda yoshlarning intellektual salohiyati, ma'naviy madaniyati, jismoniy sog'lomligini oshirish, ularning muayyan hunar yoki kasbni egallashi va jamiyat taraqqiyotiga munosib hissa qo'shishi uchun sharoitlar yaratilmoqda. Insoniyat axborotlashgan jamiyat yaratish sari uzoq tarixiy yo'lni bosib o'tdi. Bu yo'lda ko'plab rivojlanish bosqichlaridan o'tilgan va "Eng qadimgi davr", "Qadimgi davr", "O'rta asrlar", "Hozirgi zamon" kabi iboralar qo'llanilsada, hech qachon insoniyatning axborotga nisbatan ehtiyoji kamayib qolmadi. Asrlar o'tsada, axborot ko'lami kengayib, uning ahamiyati tobora ortib boraverdi.

Axborot hamisha jamiyat hayotida ham, alohida shaxs hayotida ham muhim o'rin egallagan. Insoniyat tarixida axborotlarni yig'ish, saqlash va uzatish vositalarining

rivojlanish jarayoni bir tekis kechmagan va bir necha bor axborot sohasida "Informatsion inqilob" deb ataluvchi global ahamiyat kasb etuvchi hodisalar yuz bergan. Birinchi informatsion inqilob yozuvning kashf etilishi bilan bog'liq. Yozuv insoniyatga bilimlarni to'plash va uni avlodlarga uzatish imkonini berdi.

O'tgan yillar davomida O'zbekistonda axborot sohasini liberallashtirish, so'z erkinligini ta'minlash, axborotdan foydalanish madaniyatini shakllantirishga qaratilgan keng qamrovli islohotlar, ko'plab chora-tadbirlar amalga oshirildi. Xususan, mamlakatimizda axborot sohasida kechayotgan jarayonlarning tahlili bu sohaga oid asoslarni takomillashtirish izchil va tizimli tarzda amalga oshirilayotganini ko'rsatmoqda.

Demokratik jamiyat qurish tamoyillari va jahon standartlarga mos keladigan mustahkam huquqiy asos va so'nggi yillarda mamlakatdagi olib borilayotgan tub islohotlar jarayonida Internet tizimidan keng foydalanish, uni milliy kontent bilan boyitish darajasi keskin oshdi, internet-nashrlari soni ko'paydi, nodavlat gazetalar, tele va radiostudiyalar tizimi shakllandi, ijtimoiy-iqtisodiy sohalarda raqamli axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish ko'lami kengaydi.

Bunday o'zgarishlar ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlar mazmunini qayta ko'rib chiqishni, jumladan yosh

avlodning raqamli texnologiya sohasidagi bilim doirasini kengaytirish, axborotni qabul qilish va idrok etishda mustaqil fikrlash kabi qator ko'nikmalarini shakllantirishni taqozo etmoqda. Insoniyat axborotlashgan jamiyatga intilish jarayonida bir necha bosqichlarni bosib o'tdi. Axborotga bo'lgan ehtiyoj esa tarixning biror davrida kamaymagan. Yozuvning yaratilishi birinchi axborot inqilobi sifatida insonga bilimni avlodlarga yetkazish imkonini berdi. Qadimgi Misr, Mesopotamiya, Xitoy kabi sivilizatsiyalar yozuv tufayli yuqori madaniy va iqtisodiy darajaga ko'tarildilar.

Ikkinchi axborot inqilobi – kitob bosishning ixtiro qilinishi (XVII asr) axborotni ommalashtirdi, savodxonlikni kengaytirdi va fan–texnikaning tez rivojiga xizmat qildi. Uchinchi inqilob – telegraf, telefon va radioning paydo bo'lishi (XIX asr oxiri) axborotni masofaga tez yetkazish imkonini yaratib, globallashtirish jarayonini boshlab berdi. To'rtinchi axborot inqilobi – mikroprotessor va personal kompyuterlarning keng tarqalishi (XX asr 70–yillari) axborotni saqlash, qayta ishlash va uzatish tizimini tubdan o'zgartirdi. Bu jarayon axborotlashgan jamiyat rivojini ta'minladi.

O'zbekiston oxirgi yillarda axborot sohasini liberallashtirish, so'z erkinligini ta'minlash, raqamli texnologiyalarni joriy etish bo'yicha keng islohotlar olib bordi. Internet tarmog'i rivojlandi, milliy kontent kengaydi, nodavlat media subyektlari soni ortdi. Bu esa ta'lim mazmunini yangilash, yosh avlodga raqamli madaniyat va mustaqil fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishni talab qilmoqda.

Prezident Sh.Mirziyoyev axborot sohasida ochiqlik, shaffoflik va jamoatchilik bilan muloqotni kuchaytirishga qaratilgan tashabbuslarni ilgari surdi. Bu axborot olishning erkinligini ta'minlashga xizmat qilmoqda.

Axborot tarqatish tarixi qadimdan mavjud bo'lib, og'zaki va yozma shakllarda rivojlangan. "Avesto"da axborotning haqqoniyligi va insonning ezgu fazilatlarini ta'kidlangan. Amir Temur davrida ham axborotni yig'ish, yozish va tez yetkazish davlat boshqaruvida muhim mexanizm bo'lgan. Alisher Navoiy ijodida ham to'g'ri va rost axborotning ahamiyati alohida o'rin egallagan.

Radio va televideniye axborot tarqatishning ta'sirchan vositalari sifatida shakllandi. O'zbekistonda radio 1924 yildan, televideniye esa 1956 yildan boshlab efgira uzatila boshlandi. Keyingi yillarda televideniye tarmoqlari kengayib, rangli ko'rsatuvlar yo'lga qo'yildi.

Turkistonda matbuot XIX asr oxirlarida shakllandi. "Turkistanskie vedomosti" va "Turkiston viloyatining gazetasi" ilk bosma nashrlar bo'lib, ular orqali o'lka tarixi, madaniyati va ijtimoiy hayoti haqida ma'lumotlar tarqatilgan. XX asr boshlarida yuzdan ortiq gazeta va jurnallar nashr etilgani bu hududda axborot maydoni keng shakllanganini ko'rsatadi.

O'zbekistonda axborot vositalari tarixini o'rganish fan, fikr va ma'rifat taraqqiyoti bilan uzviy bog'liq bo'lib, bugungi axborot madaniyatini rivojlantirishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Axborotlashgan jamiyatning shakllanishi, axborot inqiloblari, O'zbekistonda axborot siyosati va ommaviy axborot vositalarining rivojiga oid ilmiy manbalar mazkur mavzuning nazariy asoslarini yoritishda muhim o'rin tutadi. Tadqiqotchi olimlar tomonidan ushbu jarayonning turli jihatlari – texnologik taraqqiyot, ijtimoiy ongning shakllantirish, axborot xavfsizligi, media madaniyati va kommunikatsiya texnologiyalari bo'yicha ilmiy qarashlar ishlab chiqilgan.

Birinchi guruh adabiyotlarda (D.Bell, M.Maklyuen, O.Toffler, M.Kastels kabi G'arb tadqiqotchilari) axborot jamiyati tushunchasi, uning bosqichlari va ta'sir mexanizmlari nazariy jihatdan tahlil qilingan. Ular axborotning iqtisodiy

resurs sifatidagi o'rnini, kommunikatsiya vositalarining jamiyatni o'zgartirishdagi kuchini alohida ta'kidlaydilar. Xususan, M.Maklyuenga ko'ra, axborot – inson tafakkurining asosiy harakatlantiruvchi kuchi, media esa "global qishloq"ni shakllantiruvchi asosiy omildir.

Ikkinchi guruh manbalar – O'zbekiston olimlarining tadqiqotlari bo'lib, ularda milliy axborot tizimining shakllanishi, ommaviy axborot vositalarining tarixiy rivoji, matbuotning ma'rifiy ahamiyati va axborot siyosatining o'ziga xos xususiyatlari yoritilgan. Xususan, M.Qosimova, A.Qodirov, B.Yo'ldoshev, U.Begimqulov kabi tadqiqotchilar O'zbekiston sharoitida media madaniyatini rivojlantirish, internet muhitida yoshlar ongini himoya qilish, axborot xavfsizligini ta'minlash masalalarini tahlil qilgan.

Uchinchi guruh adabiyotlar – tarixiy manbalardir. Ularga "Avesto", Amir Temurning "Tuzuklar", Alisher Navoiyning asarlari, shuningdek "Turkistanskie vedomosti", "Turkiston viloyatining gazetasi", "Taraqqiy", "Sadoi Turkiston" kabi milliy matbuot namunalari kiradi. Bu manbalar orqali o'zbek xalqining qadimdan boshlab axborotga bo'lgan ehtiyoji, rostgo'y va haqqoniy xabarlarining jamiyat taraqqiyotidagi o'rni yoritilgan.

To'rtinchi guruhni zamonaviy media, raqamli kommunikatsiya, internet texnologiyalarining ta'siri haqidagi tadqiqotlar tashkil etadi. Ushbu sohada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning nutqlari, davlat dasturlari, strategiyalar hamda mutaxassislarining ilmiy maqolalari dolzarb manba sifatida xizmat qiladi. Ularda raqamli transformatsiya, axborot siyosatini modernizatsiya qilish, yoshlarning media savodxonligini oshirish masalalari keng tahlil qilingan.

Keltirilgan adabiyotlarning o'rganilishi shuni ko'rsatadiki, axborot jamiyatining shakllanishi murakkab ijtimoiy, siyosiy va madaniy jarayon bo'lib, uni tadqiq etish ko'p qirrali yondashuvni talab etadi. Mavzuga oid manbalar tarixiylik, nazariylik va amaliyotning uzviy bog'liqligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotning metodologik asosini axborot jamiyati nazariyalari, kommunikatsiya jarayonlari haqidagi ilmiy qarashlar, tarixiy manbalar va O'zbekiston Respublikasida olib borilayotgan axborot siyosatiga doir normativ-huquqiy hujjatlarining tahlili tashkil etadi. Tadqiqot kompleks yondashuv asosida amalga oshirilib, unda quyidagi metodlar qo'llanildi: Tarixiy–qiyosiy tahlil metodi. Bu metod yordamida axborot inqiloblarning bosqichlari, O'zbekiston va jahon tajribasi, turli davrlardagi axborot vositalarining rivojlanish tamoyillari solishtirildi. Ilmiy–nazariy tahlil metodi. Globallashtirish, axborot xavfsizligi, media madaniyati va kommunikatsiya jarayonlariga oid nazariy konsepsiyalar o'rganildi, yetakchi olimlar (M.Maklyuen, O.Toffler, M.Kastels va boshqalar) qarashlari tahlil qilindi. Kontent tahlili. O'zbekiston matbuoti, televideniyesi, radiokanallari va internet nashrlarida berilayotgan axborot materiallari mazmuni, shakli va ijtimoiy ta'siri o'rganildi. Tarixiy nashrlar: "Sadoi Turkiston", "Taraqqiy", "Turkiston viloyatining gazetasi" kabi manbalar tahlil qilindi.

Yuqoridagi metodlar tadqiqotning ilmiy asoslanganligini, tahlil jarayonining obyektivligini ta'minladi hamda axborot vositalari, media madaniyati va raqamli texnologiyalarning jamiyat taraqqiyotidagi o'rnini chuqur o'rganish imkonini berdi.

Tahlil va natijalar. O'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, axborotlashgan jamiyatning shakllanishi ko'p bosqichli va murakkab jarayondir. Yozuvning paydo bo'lishidan boshlab, kitob bosish, telegraf, telefon, radio va nihoyat mikroprotessorlar asosidagi texnologiyalar axborotni

yig'ish, saqlash va uzatish jarayonlarini tubdan o'zgartirib, zamonaviy kommunikatsiyaning shakllanishiga asos yaratgan.

O'zbekiston tajribasi tahlili shuni tasdiqlaydiki, mustaqillik yillaridan boshlab axborot sohasida izchil islohotlar amalga oshirilgan. Xususan, so'z erkinligini ta'minlash, internet tarmog'ini rivojlantirish, nodavlat OAVlar faoliyatini qo'llab-quvvatlash, davlat organlarining ochiqligini kuchaytirish yo'lida muhim qadamlar tashlandi. Raqamli texnologiyalarni joriy etish, davlat xizmatlarini elektronlashtirish, ta'lim tizimida AKTdan foydalanishni kengaytirish jarayonlari axborot madaniyati rivoji uchun qulay sharoit yaratdi.

Tarixiy manbalar tahlili shuni ko'rsatdiki, o'zbek xalqi qadimdan axborotga katta e'tibor bilan qaragan. "Avesto", Amir Temurning "Tuzuklar"i, Alisher Navoiyning asarlari kabi manbalarda rost xabar, adolatli ma'lumot va haqqoniy fikrning jamiyatdagi o'rni alohida ta'kidlangan. Bu esa axborotning ijtimoiy boshqaruvdagi rolini o'tmishdayoq anglanganini ko'rsatadi.

Matbuot va media vositalarining tarixiy rivoji bo'yicha o'rganilgan ma'lumotlar O'zbekistonda XIX–XX asrlarda milliy matbuot shakllanganini, "Taraqqiy", "Sadoi Turkiston", "Turkiston viloyatining gazetasi" kabi nashrlar aholining

siyosiy va madaniy ongini yuksaltirishda katta rol o'ynaganini ko'rsatadi. Bugungi kunda esa media tizimi raqamli shaklga o'tib, internet nashrlari va ijtimoiy tarmoqlarning ta'siri sezilarli darajada ortgan.

Xulosa va takliflar. Yurtimizda va butun dunyoda axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi jamiyat hayotining barcha jabhalarida tub o'zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. Tadqiqot davomida o'rganilgan tarixiy manbalar, ilmiy adabiyotlar va amaliy misollar shuni ko'rsatadiki, axborotga bo'lgan ehtiyoj insoniyat taraqqiyotining barcha bosqichlarida muhim o'rin tutib kelgan. Yozuvning yaratilishidan tortib, kitob bosish, telegraf, radio, televideniye va zamonaviy kompyuter texnologiyalarigacha bo'lgan jarayon axborot inqiloblari sifatida jamiyatning intellektual rivojiga bevosita ta'sir ko'rsatgan. O'zbekiston tajribasi shuni tasdiqlaydiki, so'nggi yillarda axborot sohasini modernizatsiya qilish, so'z erkinligini kengaytirish, media muhitni liberallashtirish, davlat boshqaruvida ochiqlikni kuchaytirish bo'yicha muhim natijalar qo'lga kiritildi. Raqamli texnologiyalar ta'lim, iqtisodiyot, boshqaruv va kundalik hayotda keng qo'llanilayotgani yosh avlodning media savodxonligini oshirishni strategik vazifaga aylantirmoqda.

ADABIYOTLAR

1. Мирзиёев Ш. Танкидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиши керак. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. – Б. 43.
2. Назаретян А.П. Агрессивная толпа, массовая паника, слухи. Лекции по специальной и политической психологии. – СПб.: Питер, 2004. – С. 163.
3. Столбникова Е.А. Развитие критического мышления студентов педагогического вуза в процессе медиаобразования(на материале рекламы). Таганрог, 2006. –С. 76-77.
4. Маматова Я., Сулайманова С. Узбекистан по пути развития медиаобразования. Учебное пособие. – Ташкент: «Extremum-press», 2015. – С. 10.
5. А.Муминов Ўзбекистон ахборотлашган жамият сари, "Turon zamin ziyo" 2013. 128-129-бетлар
6. Ёқубова М. Жамият тараққиётида ахборотлашув ва ахборот технологиялари масалалари: Фал. фан. ном. ... дис. – Тошкент: 2006. – 165 б.
7. Fan, ta'lim, madaniyat va biznesda internet va axborot-kutubxona resurslari», xalqaro konferensiya materiallari «Centarl Asia – 2017» – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2017. – 364 б.